
TUMANDA PISTA PARVARISHI VA UNI YETISHTIRISH YO'LGA QO'YILADI



Tumanda pista parvarishi va uni yetishtirish yo'lga qo'yiladi

So'x tumani iqlimi meva va sabzavotlarning barcha turini yetishtirishga juda mos va qulay hisoblanadi. Shuning uchun, tumanda qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan yerlardan samarali foydalanish uchun amaliy ishlar qilinmoqda.

Xabaringiz bor, So'x tumani hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va tuman prokurori Sadirali Mirzokarimovlar Rishton tumanida pista parvarishini yo'lga qo'ygan Qodirjon Qosimovni tumanga taklif etib, pistachilikni yo'lga qo'yishga doir o'rganishlar olib borishgan. Mutaxassis tomonidan So'x tumani iqlimi va tabiati ushbu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirishga qulay ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Tumanga ayni kunda pista ko'chatlari olib kelindi. Pista niholarini parvarishlash uchun "Guzari Omadi Lazina" MChJga qarashli 1 gektar maydoniga ega bo'lgan issiqxona tanlab olindi va ayni kunda issiqxonani pista parvarishiga tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati













[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-04 16:52:48